

BINTYUNUS

2019-12-23

# QIZALOG'IM

Ey Qizalog'im!

Agar bir insonning nasli, ulug'ligi yoki obro'si balandligi uchun unga vasiyat qilmay qo'yilganida, sizga vasiyat qilmagan bo'lar edim. Lekin vasiyat aqilli odamga eslatma, g'ofilga esa tanbexdir.

Ey Qizalogim!

Agar biror ayol otasining boyligi uchun ersiz o'tishi mumkin bo'lganda, men ersiz o'tar edim. Lekin ayollar erkaklar uchun, erkaklar ayollar uchun yaralganlar.

Ey Qizalog'im!

Siz tinch-totuv yashab turgan axlingizni tashlab, tanimagan bilmagan manzilga, tanimagan kishilar xuzuriga ketmoqdasiz. Kuyovingiz bu xayotda siz uchun podshoxga aylandi! Agar siz unga cho'ri bo'la olsangiz u sizga qul bo'ladi!

Ey Qizalog'im!

Mendan o'n vasiyatni yodlab oling, ular sizga ozuqa xam obro' bo'ladi:

**1-** Qanoatli bo'ling, qanoat qalbning roxatidir.

**2-** Eringizga chiroyli quloq solib, chiroyli itoat qiling, Allohning rizosi chiroyli xayotdadir.

**3-** Uning ko'zlari tushadigan yerga e'tibor bering, sizdan xech qachon xunuk narsani ko'rmasin. (Ayol kishi o'zida bor ziynatini turmush o'rtogigagina ko'rsatsin) ziynatning go'zali surmadir.

**4-** Dimog'i sizdan faqat shirin xidlarni topsin, xushbo'ylikning afzali suvdadir.

**6-** Taomlanish va dam olish vaqtiga beparvo bo'lmang, ochlik inson ichidagi alanga, charchoq esa g'am-g'ussadir.

**7-** Uning ota-ona, qarindoshlarini xurmat qiling, bu go'zal tadbirdir.

**8-** Uning molu-mulkini saqlang, bu tartib intizomdir.

**9-** Uning sirini saqlashga o'rganing, yo'qsa uni o'zingizga dushmanga aylantirib olasiz.

**10-** Buyruqlariga itoatli bo'ling, yo'qsa, qalbini g'inaga to'ldirib qo'yasiz.

Va yana uning g'amg'in xolida shodlanishdan, shodligida g'amg'in bo'lib qolishdan saqlaning, chunki uning g'amligida shodlanishingiz aqlingiz kosiriligiga dalolat qiladi, shodligida g'amg'in bo'lib olishingiz totuv xayotingizni bulg'aydi.

Unga qanchalar xurmatda bo'lsangiz sizga shunchalar izzatda bo'ladi, unga qanchalar kelishimli bo'lsangiz xayotingiz shunchalar totuv davom etadi.

**Umama binti Xoris**

T.ME/TOYYIBA AH